


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEKANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	349
A. B. Qurbonov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	375
Masharipova Maksuda Becnazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJURLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA INNOVATSION MODELAR TAHLILI	431
Xurshida Maxmadaminova	
O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	440
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSION MODEL OMILLARI VA DRAYVERLARI.....	446
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
УПРОЩЕННЫЙ СПОСОБ ВЫЧЕРЧИВАНИЯ ПРОФИЛЯ ЗУБЧАТОГО КОЛЕСА ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО «ТЕОРИИ МЕХАНИЗМОВ И МАШИН».....	455
Файзуллаев Асамитдин, Файзуллаев Салохитдин	
МОДЕЛИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	459
Джидибаева Гульзат, Абдуллаев Ильгор, Далиев Ахтам	
MAXSUS KIYIMBOR TO'QIMALAR UCHUN BAZALT XOMASHYOSINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	467
Mustanova Zilola Abdusamat qizi	
РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ И АЛГОРИТМОВ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО 3D-МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ С УЧЁТОМ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ФИГУРЫ ЧЕЛОВЕКА	473
Каримбердиева Мохинур Шерзод кизи	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	481
Azamatov Po'lat To'liqunovich	
CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL MUHIT TUSHUNCHASI VA UNING FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	487
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
ANDIJON SHAHRI BOBURSHOH KO'CHASIDA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH.....	495
Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li	
CHAQIQ TOSH ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	501
Qosimov Karimjon, Zuhritdinov Alisher, Kosimova Maloxatxon, Zo'xriddinov Dilmurod, Mahammadjonov Nurmahamad	
COMPOSITION ANALYSIS OF DEMERCAPTANIZED RESIDUAL STREAMS AND GAS CONDENSATES AS RAW MATERIALS FOR THE SYNTHESIS OF MERCAPTAN-CONTAINED ODORANTS	508
Tilloeva Shakhnoza Fakhritdinovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI.....	514
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING TAMOYILLARI, USULLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.....	520
Farxod G'afforovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING MAHALLA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	526
Yodgorov Farrux G'afforovich	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA TASHILADIGAN TOVARLAR USTIDAN BOJXONA NAZORATINING TASHKILY-BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	533
Berdiyev Abbas, Ergashev Qobiljon	
TRANSPORT SOHASIDA MOLIYAVIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI (TOSHKENT METROPOLITENI MISOLIDA).....	540
Xamrayev Jamshid Panjiyevich	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	547
Sarmanov Orifjon Adiljonovich	
JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN OLIB KIRILADIGAN TOVARLARGA BOJSIZ OLIB KIRISH NORMASINI QO'LLASH VA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	554
Nomozov Abduvohid Abdurazzoq o'g'li	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARI	559
D. M. Kallibekov	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARINING TO'PLANISH HAJMLARINI TAHLIL QILISH.....	563
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Xamidullayev Baxrom, Jabborov Ergash	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSiya LOYIHALARINI MOLiyALASHTIRISHDA "KAPITAL MAJBURIYATLAR — LIKVIDLIK — ERKIN PUL OQIMI" MUVOZANATINI TA'MINLASH MODEL.....	570
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA “KAPITAL MAJBURIYATLAR — LIKVIDLIK — ERKIN PUL OQIMI” MUVOZANATINI TA'MINLASH MODELI

Jumaniyazova Feruza Rajabovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi, PhD., dotsent

E-mail: feruza042820@gmail.com

ORCID: 0000-0002-1838-3746

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda «kapital majburiyatlar — likvidlik — erkin pul oqimi» muvozanatini ta'minlash modeli taklif etilgan. Model operatsion faoliyatdan sof pul oqimini uchta raqobatlashuvchi yo'nalish — kapital qo'yilmalar, dividend to'lovlari va qarzlarni qaytarish o'rtasida taqsimlash jarayonini rasmiylashtiradi hamda muvozanat holatini baholovchi beshta koeffitsiyentlar tizimini o'z ichiga oladi. Model «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ amaliyotida sinovdan o'tkazilgan. Natijada 2025-yilda 2024-yilga nisbatan operatsion faoliyatdan sof pul oqimi 2 702 mln AQSh dollaridan 4 652 mln dollarga (+72,2 %), asosiy vositalar xaridi 914 mln dollardan 1 019 mln dollarga (+11,5 %), dividend to'lovlari 1 731 mln dollardan 3 204 mln dollarga (+85,1 %) oshgan, qarzlarni qaytarish esa 1 214 mln dollardan 1 138 mln dollarga (–6,3 %) kamaygan. Pul oqimi taqchilligi 1 157 mln dollardan 709 mln dollarga, ya'ni 38,7 foizga qisqargan, kapital majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti 0,700 dan 0,868 gacha ko'tarilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, kapital majburiyatlar, likvidlik, erkin pul oqimi, operatsion pul oqimi, dividend bosimi, qarzlarni qaytarish jadvali, qoplash koeffitsiyenti, moliyaviy moslashuvchanlik, aksiyadorlik jamiyati.

Abstract: The article proposes a model for maintaining the «capital commitments — liquidity — free cash flow» balance in the financing of investment projects by joint-stock companies. The model formalises the allocation of net operating cash flow among three competing uses — capital expenditure, dividend payments, and debt repayment — and includes a system of five coefficients for assessing the state of balance. The model was tested at Navoi Mining and Metallurgical Combinat JSC. As a result, in 2025 compared with 2024, net cash flow from operating activities rose from USD 2,702 million to USD 4,652 million (+72.2%), purchases of fixed assets from USD 914 million to USD 1,019 million (+11.5%), and dividend payments from USD 1,731 million to USD 3,204 million (+85.1%), while debt repayment fell from USD 1,214 million to USD 1,138 million (–6.3%). The cash flow gap narrowed from USD 1,157 million to USD 709 million, that is by 38.7%, and the capital commitment coverage ratio rose from 0.700 to 0.868.

Keywords: investment project, capital commitments, liquidity, free cash flow, operating cash flow, dividend pressure, debt repayment schedule, coverage ratio, financial flexibility, joint-stock company.

Аннотация: В статье предложена модель обеспечения баланса «капитальные обязательства — ликвидность — свободный денежный поток» при финансировании инвестиционных проектов акционерными обществами. Модель формализует распределение чистого операционного денежного потока между тремя конкурирующими направлениями — капитальными вложениями, дивидендными выплатами и погашением задолженности — и включает систему из пяти коэффициентов оценки состояния баланса. Модель апробирована на практике АО «Навоийский горно-металлургический комбинат». В результате в 2025 году по сравнению с 2024 годом чистый денежный поток от операционной деятельности вырос с 2 702 млн долларов США до 4 652 млн (+72,2 %), приобретение основных средств — с 914 млн до 1 019 млн (+11,5 %), дивидендные выплаты — с 1 731 млн до 3 204 млн (+85,1 %), тогда как погашение задолженности сократилось с 1 214 млн до 1 138 млн (–6,3 %). Дефицит денежного потока сократился с 1 157 млн до 709 млн долларов, то есть на 38,7 %, а коэффициент покрытия капитальных обязательств вырос с 0,700 до 0,868.

Ключевые слова: инвестиционный проект, капитальные обязательства, ликвидность, свободный денежный поток, операционный денежный поток, дивидендное давление, график погашения долга, коэффициент покрытия, финансовая гибкость, акционерное общество.



KIRISH

Yirik aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy muammosi mablag'ning umuman yetishmasligida emas, balki uni taqsimlashdagi vaqtinchalik nomutanosiblikda namoyon bo'ladi. Operatsion faoliyatdan olinadigan pul oqimi bir vaqtning o'zida uchta majburiyatni qoplashi lozim: tasdiqlangan investitsiya dasturi bo'yicha kapital qo'yilmalarni, aksiyadorlar oldidagi dividend majburiyatlarini va kreditorlar oldidagi qarzlarni qaytarish jadvalini. Ushbu uch yo'nalish bir-biri bilan raqobatlashadi va ularning har biri qat'iy muddatlarga bog'langan.

Amaliyotda ushbu majburiyatlar ko'pincha alohida-alohida rejalashtiriladi: investitsiya dasturi ishlab chiqarish bo'linmalari, dividend siyosati aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, qarzlarni qaytarish jadvali esa kredit shartnomalari asosida shakllanadi. Natijada ularning yig'indisi operatsion pul oqimidan oshib ketishi va pul oqimi taqchilligi yuzaga kelishi mumkin. Bunday taqchillik qisqa muddatli qarz jalb qilish yoki pul zaxirasini kamaytirish hisobiga qoplanadi, bu esa jamiyatning moliyaviy moslashuvchanligini pasaytiradi va investitsiya loyihalarining muddatlarini uzaytirish xavfini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsadi — aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kapital majburiyatlar, likvidlik ehtiyoji va erkin pul oqimi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash modelini ishlab chiqish hamda uni «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ («NKM» AJ) amaliyotida sinovdan o'tkazishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pul oqimlarini boshqarish nazariyasida investitsiya, dividend va qarz qarorlarining o'zaro bog'liqligi masalasi markaziy o'rin tutadi. R. Brili, S. Mayers va F. Allen ushbu uch qarorni korporativ moliyaviy siyosatning ajralmas uchligi sifatida talqin qiladilar [1]. J. Linter dividend siyosatining barqarorlik xususiyatini aniqlab, korxonalar dividendlarni kamaytirishdan qochishini va uni maqsadli to'lov koeffitsiyenti atrofida sekin moslashtirishini ko'rsatgan [2] — bu dividend to'lovlarining amalda deyarli qat'iy majburiyatga aylanishini bildiradi.

M. Jensenning erkin pul oqimi konsepsiyasiga ko'ra, ortiqcha pul oqimi menejerlar tomonidan past samarali loyihalarga yo'naltirilishi mumkin; dividend va qarz majburiyatlari esa ushbu xavfni cheklovchi intizomiy vosita vazifasini bajaradi [3]. K. Frut, D. Sharfshteyn va J. Steyn ichki mablag'lar bilan investitsiya imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik risklarni boshqarish siyosatini shakllantirishning asosiy sababi ekanligini asoslaganlar [4]. H. Almeyda, M. Kampello va M. Vaysbax pul zaxirasiga bo'lgan talabni moliyaviy cheklanganlik darajasi orqali izohlovchi modelni taklif etganlar [5].

Amaliy tadqiqotlar ham shu yo'nalishni tasdiqlaydi. J. Grem va K. Xarvi o'tkazgan so'rovnoma ko'ra, moliyaviy direktorlar uchun moliyaviy moslashuvchanlikni saqlash va qarz xizmatini uzluksiz ta'minlash mezonlari kapital tuzilmasi nazariyalarining nozik jihatlaridan ustunroq turadi [6]. J. Grem, K. Xarvi va S. Rajgopallarning tadqiqotida esa menejrlarning sezilarli qismi belgilangan majburiyatlarni bajarish uchun iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq loyihalarni ham keyinga surishga tayyor ekanligi aniqlangan [7]. A. Damodaran erkin pul oqimini korxona qiymatini baholashning asosiy o'lchovi sifatida qarab, uning majburiyatlar bilan muvofiqligini moliyaviy barqarorlik mezonini deb hisoblaydi [8].

Shunday qilib, adabiyotlarda muammoning ayrim jihatlar — dividend siyosatining qat'iyligi, pul zaxirasiga talab, moliyaviy moslashuvchanlik — chuqur o'rganilgan. Biroq kapital majburiyatlar, likvidlik ehtiyoji va erkin pul oqimini yagona muvozanat mezonlari tizimida birlashtiruvchi va uni yirik aksiyadorlik jamiyati amaliyotida qo'llash imkonini beruvchi model yetarli ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolada shunday model taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif etilayotgan model operatsion faoliyatdan sof pul oqimini uch blok o'rtasida taqsimlash jarayoniga asoslanadi: 1-blok — kapital majburiyatlar (investitsiya dasturi bo'yicha asosiy vositalar xaridi); 2-blok — likvidlik majburiyatlari (dividend to'lovlari va qarzlarni qaytarish jadvali); 3-blok — erkin pul oqimi (qoplash zaxirasi). Muvozanat asosiy tenglama orqali ifodalanadi:

$$OCF_t = CAPEX_t + DIV_t + REP_t + \Delta CASH_t - \Delta D_t$$

bu yerda: OCF — operatsion faoliyatdan sof pul oqimi; $CAPEX$ — asosiy vositalar xaridi; DIV — dividend to'lovlari; REP — qarzlarni qaytarish; $\Delta CASH$ — pul zaxirasining o'zgarishi; ΔD — yangi jalb qilingan qarz. Erkin pul oqimi $FCF = OCF - CAPEX$ ko'rinishida aniqlanadi.

Muvozanat holatini baholash uchun beshta koeffitsiyentdan iborat tizim taklif etiladi: $K_1 = OCF / (CAPEX + DIV + REP)$ — kapital majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti; $K_2 = FCF / (DIV + REP)$ — likvidlik majburiyatlarini qoplash koeffitsiyenti; $K_3 = CAPEX / OCF$ — investitsiya intensivligi koeffitsiyenti; $K_4 = DIV / FCF$ — dividend bosimi koeffitsiyenti; $K_5 = REP / OCF$ — qarz xizmati koeffitsiyenti.


Muvozanat holati quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi: $K_1 \geq 1,0$ va $K_2 \geq 1,0$ bo'lganda jamiyat barcha

majburiyatlarini ichki manbalar hisobidan qoplaydi; K_3 ning maqbul koridori 0,20–0,35; $K_4 \leq 0,70$ bo'lishi dividend bosimining maqbulligini, $K_5 \leq 0,30$ bo'lishi esa qarz xizmatining yuklamasi me'yorida ekanligini bildiradi. Ushbu chegaralar tog'-kon sanoati korxonalarining moliyaviy amaliyoti va kredit reytingi agentliklarining baholash yondashuvlari asosida qabul qilingan hamda tarmoq xususiyatiga qarab moslashtirilishi mumkin.

Tadqiqotning empirik bazasini «NKMK» AJning 2024 va 2025-yillar bo'yicha pul oqimlari to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari tashkil etadi. Tahlilda tarkibiy-dinamik tahlil, koeffitsiyentlar usuli va qiyosiy tahlil qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan modelning tarkibiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. “Kapital majburiyatlar — likvidlik — erkin pul oqimi” muvozanatini ta'minlash modelining blok-sxemasi¹

Modelning «NKMK» AJ amaliyotida qo'llanilishi natijasida olingan pul oqimlari ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.

«NKMK» AJ pul oqimlarining tarkibi va dinamikasi, 2024–2025-yillar²

Ko'rsatkich	2024-yil, mln AQSh dollari	2025-yil, mln AQSh dollari	O'zgarish, mln dollar	O'sish, %
Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi (OCF)	2 702	4 652	+1 950	+72,2
Asosiy vositalar xaridi (CAPEX)	914	1 019	+105	+11,5
Dividend to'lovlari (DIV)	1 731	3 204	+1 473	+85,1
Qarzlarni qaytarish (REP)	1 214	1 138	–76	–6,3
Erkin pul oqimi (FCF = OCF – CAPEX)	1 788	3 633	+1 845	+103,2
Jami chiqimlar (CAPEX + DIV + REP)	3 859	5 361	+1 502	+38,9
Pul oqimi taqchilligi	1 157	709	–448	–38,7

Jadval ma'lumotlari modelning amaliy natijadorligini ko'rsatadi. Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi 72,2 foizga o'sgan holda, kapital majburiyatlar atigi 11,5 foizga oshgan. Bu investitsiya dasturining pul oqimi imkoniyatlari doirasida rejalashtirilganini bildiradi. Qarzlarni qaytarish hajmining 6,3 foizga kamayishi esa qarz xizmati jadvalining pul oqimi dinamikasiga moslashtirilganidan dalolat beradi. Natijada bo'shagan resurs dividend to'lovlari 85,1 foizga oshirish imkonini bergan — ya'ni aksiyadorlar oldidagi majburiyatlar investitsiya dasturi hisobiga emas, balki operatsion samaradorlikning o'sishi hisobiga qoplangan.

Eng muhim natija — pul oqimi taqchilligining qisqarishi: 2024-yilda jami chiqimlar operatsion pul oqimidan

¹ Manba: muallif ishlanmasi.

² Manba: muallif ishlanmasi.




1 157 mln dollarga oshgan bo'lsa, 2025-yilda bu farq 709 mln dollarga tushgan, ya'ni 38,7 foizga kamaygan. Nisbiy ko'rinishda taqchillik operatsion pul oqimining 42,8 foizidan 15,2 foiziga qisqargan. Bu jamiyatning tashqi qisqa muddatli moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada pasaytiradi.

Muvozanat koeffitsiyentlarining hisoblangan qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval; 2-rasm).

2-jadval.

Muvozanat koeffitsiyentlarining hisoblangan qiymatlari va baholanishi³

Koeffitsiyent	Hisoblash tartibi	2024-yil	2025-yil	Maqbul chegara va baho
K ₁ — kapital majburiyatlarni qoplash	OCF / (CAPEX + DIV + REP)	0,700	0,868	≥ 1,0; chegaraga sezilarli yaqinlashgan
K ₂ — likvidlik majburiyatlarini qoplash	FCF / (DIV + REP)	0,607	0,837	≥ 1,0; yaxshilangan, hali yetarli emas
K ₃ — investitsiya intensivligi	CAPEX / OCF	0,338	0,219	0,20–0,35; koridor ichida
K ₄ — dividend bosimi	DIV / FCF	0,968	0,882	≤ 0,70; yuqori bosim saqlanmoqda
K ₅ — qarz xizmati yuklamasi	REP / OCF	0,449	0,245	≤ 0,30; meyorga keltirilgan



2-rasm. Pul oqimining taqsimlanishi va muvozanat koeffitsiyentlarining o'zgarishi⁴

Koeffitsiyentlar tahlili muvozanat holatining sezilarli yaxshilanganini tasdiqlaydi. Kapital majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti 0,700 dan 0,868 gacha, likvidlik majburiyatlarini qoplash koeffitsiyenti esa 0,607 dan 0,837 gacha ko'tarilgan. Har ikkala ko'rsatkich hali 1,0 chegarasiga yetmagan bo'lsa-da, ularning o'sish sur'ati ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi va joriy sur'at saqlangan holda muvozanat holati qisqa muddatda ta'minlanishi mumkinligini bildiradi.

Investitsiya intensivligi koeffitsiyenti 0,338 dan 0,219 gacha pasayib, maqbul koridorning quyi chegarasiga yaqinlashgan. Bu, bir tomondan, operatsion pul oqimining tez o'sishi bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan esa, u investitsiya dasturini kengaytirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi: koeffitsiyentni koridorning o'rta darajasiga (0,28 atrofida) qaytarish 2025-yil sharoitida kapital qo'yilmalarni taxminan 280 mln dollarga oshirish imkonini bergan bo'lardi.

Qarz xizmati yuklamasi koeffitsiyenti 0,449 dan 0,245 gacha kamayib, maqbul chegara ichiga kirgan — bu qarzlarni qaytarish jadvalini pul oqimi bilan uyg'unlashtirishning bevosita natijasidir. Ayni paytda dividend bosimi koeffitsiyenti 0,968 dan 0,882 gacha pasaygan bo'lsa-da, maqbul deb qabul qilingan 0,70 chegarasidan yuqori bo'lib qolmoqda. Ya'ni erkin pul oqimining 88 foizdan ortig'i dividendlarga yo'naltirilmoqda va bu modelning eng zaif bo'g'ini hisoblanadi.

Shu tariqa, «NKMK» AJ amaliyotida modelning joriy etilishi qarz xizmati va investitsiya intensivligi bo'yicha muvozanatni ta'minlagan, biroq dividend bosimi omili muvozanatni cheklovchi asosiy element bo'lib qolmoqda. Modelning uslubiy qiymati aynan shu bog'liqlikni miqdoriy aniqlab berishida — u dividend siyosatidagi har bir o'zgarishning investitsiya dasturi va qarz xizmati imkoniyatlariga ta'sirini oldindan hisoblash imkonini beradi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.

4 Manba: muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligi operatsion pul oqimining kapital majburiyatlar, dividend to'lovlari va qarzlarni qaytarish o'rtasida qanchalik muvofiqlashtirilgan holda taqsimlanishiga bog'liq. Taklif etilgan model ushbu taqsimotni yagona muvozanat tenglamasi va beshta koeffitsiyentdan iborat tizim orqali rasmiylashtiradi.

Modelning «NKMK» AJ amaliyotida qo'llanilishi 2025-yilda 2024-yilga nisbatan operatsion pul oqimining 72,2 foizga o'sishi sharoitida kapital qo'yilmalarni 11,5 foizga oshirish, qarzlarni qaytarish hajmini 6,3 foizga kamaytirish va dividend to'lovlari 85,1 foizga oshirish imkonini bergan.

Pul oqimi taqchilligi 1 157 mln dollardan 709 mln dollarga, ya'ni 38,7 foizga qisqargan; nisbiy ko'rinishda u operatsion pul oqimining 42,8 foizidan 15,2 foizga tushgan. Kapital majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti 0,700 dan 0,868 gacha, likvidlik majburiyatlarini qoplash koeffitsiyenti esa 0,607 dan 0,837 gacha ko'tarilgan.

Muvozanatni cheklovchi asosiy omil dividend bosimi bo'lib qolmoqda: dividend to'lovlari erkin pul oqimining 88,2 foizini qamrab olmoqda, bu maqbul deb qabul qilingan darajadan sezilarli yuqori.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya dasturi, dividend siyosati va qarzlarni qaytarish jadvalini yagona pul oqimi byudjetida birlashtiruvchi yillik hujjatni kuzatuv kengashi darajasida tasdiqlash; ikkinchidan, dividend siyosatida qat'iy summa o'rniga erkin pul oqimiga bog'langan moslashuvchan formuladan (masalan, dividend erkin pul oqimining 60–70 foizidan oshmasligi) foydalanish; uchinchidan, qarzlarni qaytarish jadvalini tuzishda K_5 koeffitsiyentining 0,30 chegarasini kovenant sifatida hisobga olish; to'rtinchidan, muvozanat koeffitsiyentlarini choraklik monitoring tizimiga kiritish va chegaradan chetlanish hollarida investitsiya dasturini qayta ko'rib chiqish tartibini belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. — 13th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2020. — 1024 p.
2. Lintner J. Distribution of Incomes of Corporations Among Dividends, Retained Earnings, and Taxes // The American Economic Review. — 1956. — Vol. 46, No. 2. — P. 97–113.
3. Jensen M.C. Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers // The American Economic Review. — 1986. — Vol. 76, No. 2. — P. 323–329.
4. Froot K.A., Scharfstein D.S., Stein J.C. Risk Management: Coordinating Corporate Investment and Financing Policies // The Journal of Finance. — 1993. — Vol. 48, No. 5. — P. 1629–1658.
5. Almeida H., Campello M., Weisbach M.S. The Cash Flow Sensitivity of Cash // The Journal of Finance. — 2004. — Vol. 59, No. 4. — P. 1777–1804.
6. Graham J.R., Harvey C.R. The Theory and Practice of Corporate Finance: Evidence from the Field // Journal of Financial Economics. — 2001. — Vol. 60, No. 2–3. — P. 187–243.
7. Graham J.R., Harvey C.R., Rajgopal S. The Economic Implications of Corporate Financial Reporting // Journal of Accounting and Economics. — 2005. — Vol. 40, No. 1–3. — P. 3–73.
8. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. — 3rd ed. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2012. — 992 p.
9. Fazzari S.M., Hubbard R.G., Petersen B.C. Financing Constraints and Corporate Investment // Brookings Papers on Economic Activity. — 1988. — No. 1. — P. 141–206.
10. Myers S.C., Majluf N.S. Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have // Journal of Financial Economics. — 1984. — Vol. 13, No. 2. — P. 187–221.
11. Elmirzayev S., Berdiyev O., Bo'riyev J. Milliy korporativ obligatsiyalar bozori: joriy holat va istiqbollar. — Toshkent, 2021.
12. O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>
13. «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha moliyaviy hisobotlar (2024–2025-yillar). — URL: <https://www.ngmk.uz>
14. Yagona korporativ axborot portali. Emitentlarning yillik hisobotlari. — URL: <https://openinfo.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100